UDK 911.3:656(575.1)

QIZIRIQ TUMANI IQTISODIY-IJTIMOIY RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TARMOQLAR TAHLILI

Bozorov Voxid Xushmurodovich
Termiz Davlat Universiteti
Akademik litsey o'qituvchisi
bozorovv54@gmail.com
O'zbekiston, Termiz sh, Saxovat MFY, 3-uy

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining Qiziriq tumani mustaqillikdan so'nggi davrda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dinamikasi tahlil qilingan. Jumladan, aholi joylashuvi va o'sishi, xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanish tendensiyalari, qishloq xo'jaligining zamonaviylashuvi, infratuzilmaning modernizatsiyasi, yer hamda suv resurslaridan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarini yanada takomillashtirish bo'yicha muhim xulosalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Surxondaryo viloyati, Qiziriq tumani iqtisodiy - ijtimoiy sohalar, aholi dinamikasi, yalpi hududiy mahsulot, qishloq xo'jaligi, transport va logistika, ekin maydoni, tuproq sho'rlanishi, suv resurslari, infratuzilma, mintaqaviy taraqqiyot.*

Abstract. *This article analyzes the dynamics of socio-economic development of Qiziriq district in Surkhandarya region during the post-independence period. The study examines population distribution and growth, development trends in the service sector, modernization processes in agriculture, infrastructure development, and issues related to the efficient use of land and water resources. In addition, important conclusions and practical recommendations aimed at further improving economic sectors and ensuring sustainable regional development are presented.*

Keywords: *Surkhandarya region, Qiziriq district, socio-economic development, population dynamics, regional development, agriculture, service sector, transport and logistics, land resources, water resources, soil salinity, infrastructure.*

Аннотация. *В данной статье проанализирована динамика социально-экономического развития Кизирикского района Сурхандарьинской области в период после обретения независимости. Рассмотрены вопросы размещения и роста населения, тенденции развития сферы услуг, процессы модернизации сельского хозяйства, развитие инфраструктуры, а также проблемы рационального использования земельных и водных ресурсов. Наряду с этим представлены важные выводы и практические рекомендации, направленные на*

дальнейшее совершенствование отраслей экономики и обеспечение устойчивого регионального развития.

Ключевые слова: *Сурхандарьинская область, Кизирикский район, социально-экономическое развитие, динамика населения, региональное развитие, сельское хозяйство, сфера услуг, транспорт и логистика, земельные ресурсы, водные ресурсы, засоление почв, инфраструктура.*

KIRISH. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasining ko‘plab hududlarida iqtisodiyotni qayta tarkibiy shakllantirish, ishlab chiqarish tarmoqlarini diversifikatsiya qilish hamda ijtimoiy infratuzilmani yangilash bilan bog‘liq murakkab jarayonlar yuzaga keldi. Ayniqsa, qishloq hududlarida sobiq ittifoq davridan meros bo‘lib qolgan biryoqlama ixtisoslashuv, ya’ni paxtachilikka qaram agrar model hududlarning barqaror rivojlanishiga ma’lum darajada to‘sqinlik qildi.

Surxondaryo viloyatining aksariyat tumanlari singari Qiziriq tumani iqtisodiyoti ham uzoq yillar davomida paxta xom ashyosi yetishtirishga yo‘naltirilgan holda shakllandi. Viloyatning ayrim hududlari — Termiz, Jarqo‘rg‘on, Sherobod hamda Denov tumanlarida oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati nisbatan rivojlangan bo‘lsa, Muzrabot, Qiziriq va Bandixon tumanlarida paxta monokulturasi yetakchi ishlab chiqarish yo‘nalishi sifatida saqlanib qoladi. Bunday iqtisodiy tuzilmaning shakllanishi hududlarning tabiiy resurs bazasi, transport-kommunikatsiya qulayligi, mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi hamda iste’mol bozorlariga yaqinligi kabi omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu jihatdan Qiziriq tumani ayrim strategik ko‘rsatkichlar bo‘yicha nisbatan noqulay iqtisodiy-geografik sharoitga ega bo‘lishiga qaramay, keyingi yillarda unda ijobiy tarkibiy o‘zgarishlar va barqaror o‘sish tendensiyalari kuzatilmoqda.


Qiziriq tumani Surxondaryo viloyatining janubi-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, 1975-yil 6-martda mustaqil ma'muriy birlik sifatida tashkil etilgan. Tuman g'arbdan Sherobod, janubidan Angor, shimolidan Bandixon, sharqdan Jarqo'rg'on, shimoli-sharqdan Qumqo'rg'on va shimoli-g'arbdan Muzrabot tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 330 km² bo'lib, 2022-yil ma'lumotiga ko'ra aholi soni 350 ming kishini tashkil etadi. Tarkibida 1 ta shaharcha (Sariq), 5 ta (MFY) Bo'ston, Mehnatobod, Paxtakor, Yangiy'ol, Yangi Hayot mahalla fuqarolari yig'inlari mavjud.

Qiziriq tumani yalpi hududiy mahsuloti miqdori (YHM) 2010–2024-yillar davomida barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etib, 2010-yilda 3,3 mlrd. so'm bo'lgan ko'rsatkich 2024-yilga kelib 56,5 mlrd. so'mga yetdi hamda 14 yillik o'sish taxminan 17 barobarni tashkil etdi.

Qiziriq tumani relyefi tekislik, adir va tog'oldi qismlaridan iborat. Bu xilma-xillik qishloq xo'jaligi tizimini ham belgilaydi: Tekisliklarda paxtachilik va g'allachilik, adirlarda bog'dorchilik va chorvachilik rivojlangan. Foydali qazilmalardan osh tuzi,

oltingugurt, yonuvchi slanes va qurilish materiallari (g'isht xom ashyosi, qum, shag'al) konlari mavjud bo'lib, bu sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun tabiiy poydevor hisoblanadi.

Tuman quruq subtropik iqlim zonasida joylashgan. Yillik o'rtacha temperatura 18°C ni tashkil etadi. Yanvarning o'rtacha temperaturasi tekislik va adirlarda +3,6°C, tog'larda −6°C, mutlaq minimum esa −20°C. Iyulning o'rtacha temperaturasi 32,1°C bo'lib, absolut maksimum 48°C ga yetishi qayd etilgan. Yillik yog'in miqdori atigi 150 mm, vegetatsiya davri 260 kun. Bu iqlim erta pishar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun qulay, ammo bug'lanish koeffitsiyenti yuqoriligi tuproq sho'rlanishiga zamin yaratadi.




1-rasm. Qiziriq tumani YHM dinamikasi (2010–2024, mlrd. so'm).

Manba: Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzildi[1].

O'sish dinamikasini tahlil qilganda uch bosqich ajralib turadi: 2010–2016 — sekin o'sish bosqichi (3,3-19,3 mlrd.), 2017–2022 — jadal o'sish (24,7-48,9 mlrd.), 2023–2025 - yuqori pog'onada barqarorlashish (52,3-62,8 mlrd.). 2020-yildan keyingi yillardagi yuqori sur'atlar tumanda investitsiya faolligi va xizmat ko'rsatish sektorining kengayganidan dalolat beradi.

Qishloq xo'jaligi tuman iqtisodiyotida hal qiluvchi o'rin tutadi. Iqtisodiy faol aholining 65–70% qishloq xo'jaligi bilan band. Asosiy yo'nalishlar: paxtachilik (ayniqsa ingichka tolali navlar), g'allachilik, chorvachilik, sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik va tokchilik. Tumanda paxta tozalash zavodi, g'isht zavodi, don kombinati, vino tayyorlash korxonasi, tajriba xo'jaligi, shirkat, dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatadi.

[1] https://surxonstat.uz/uz/rasmiy-statistika/macro-indicators-2 (murojaat vaqti 20.04.2026)




2-rasm. Dehqonchilik va chorvachilik mahsuloti o'sishi (2010–2024, mlrd. so'm).

2010-yilda dehqonchilik 1 310,8 mlrd. so'm, chorvachilik 976,0 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2024-yilga kelib dehqonchilik 17 887,5 mlrd. so'mga (13,6 barobar), chorvachilik esa 17 346,6 mlrd. so'mga (17,8 barobar) yetdi. Xarakterli holat: chorvachilik o'sish sur'ati dehqonchilikdan oshib ketdi, bu tuman aholisining mol-qo'y, parranda boqishga ixtisoslashuvi kuchayganligini ko'rsatadi.

O'sish sur'atlari tahlili shuni ko'rsatadiki, yillik o'rtacha o'sish 104–108% oralig'ida bo'lgan. Yagona istisno — 2018-yil, dehqonchilik 92,4% ga tushib ketdi. Bu iqlim omillari (qurg'oqchilik) yoki agrotexnologik muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2019-yildan boshlab o'sish barqarorlashdi.

Ekin maydonlari dinamikasi



3-rasm. Qishloq xo'jaligi ekin maydoni o'zgarishi (2010–2024, gektar).


Ekin maydoni 2016-yilgi eng yuqori nuqtadan (285 000 ga) 2024-yilga kelib 226 399 ga ga tushdi — 8 yilda 58 601 gektarlik kamayish (−20,6%). Bu tendensiya bir tomondan intensiv agrotexnologiyaga o'tish (kam maydondan ko'p hosil) ko'rsatkichi bo'lsa, ikkinchi tomondan sug'oriladigan yerlarning sho'rlanishi yoki dehqonchilik uchun yaroqsiz bo'lib qolishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. 2025-yil uchun 230 000 ga atrofida barqarorlashish prognoz qilinmoqda.

Tuproq xilma-xilligi: tekisliklarda och va to'q bo'z tuproqlar, adirlar bo'ylab arid tuproqlar, tog' etagida esa sur tuproqlar keng tarqalgan. Bo'z tuproqlar qadimdan sho'rlanishga moyil bo'lib, yillik yog'inning kamligida drenaj tizimi yetarli ishlamasa, tuzlarning yer yuziga ko'tarilishi kuzatiladi. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari milliy tadqiqot universiteti ilmiy ishlariga ko'ra, Oqjar, Kirshak, Qumqishloq qishloqlarida meliorativ vaziyat maxsus tadqiqot va loyihalarni talab qilmoqda.

TRANSPORT VA LOGISTIKA

Tuman hududidan Toshkent — Dushanbe xalqaro avtomobil magistrali o'tadi. Bu strategik jihatdan muhim — tuman tranzit savdo yo'lida joylashgan. Tuman markazidan Termizga muntazam avtobus va marshrutli taksilar qatnaydi. Bir necha yo'nalishda ichki avtomobil yo'llari ham mavjud.

Avtomobil transportida tashilgan yuklar hajmi 200-2024 y (ming tonna)



4-rasm. Avtomobil transportida tashilgan yuklar hajmi (2000–2024, ming tonna).

Yuk tashish hajmi 2000-yildan beri murakkab dinamikani namoyon etdi. 2000-yilda 1.108 ming tonna bo'lgan ko'rsatkich 2005-yilga kelib 662,2 ming tonnaga tushdi (pasayish bosqichi). 2006-yildan boshlab o'sish tendensiyasi qaytdi va 2019-yilga kelib 2997,2 ming tonnaga yetdi — tarixiy maksimum. COVID-19 pandemiyasi ta'sirida 2020-yilda keskin pasayish bo'ldi (2 163,6 ming tonna). 2021–2023-yillarda

barqarorlashib, 2024-yilda yangi rekord o'rnatildi — 3416,2 ming tonna. Bu tumanning tranzit savdodagi rolini mustahkamlayotganidan dalolat beradi.

ASOSIY KO'RSATKICHLAR: VILOYAT TUMANLAR TAQQOSLAMASI

Surxondaryo viloyati tumanlarining asosiy ko'rsatkichlari (2024)

Tuman	Aholi (ming)	Maydon (km²)	Logistika omborlar (ta)	Aholi zichligi
Denov	440	750	21	386 k/km²
Qumqo'rg'on	267	870	—	301 k/km²
Jarqo'rg'on	245	1 640	—	149 k/km²
Sherobod	218	2 730	8	79 k/km²
Sariosiyo	238	3930	15	—
Qiziriq	129	330	**4**	**1.060 k/km²**

Manba: *Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi,2023;*
Agro infratuzilma ma'lumotlari.

Taqqoslama shuni ko'rsatadiki, Qiziriq tumani aholi soni bo'yicha (129 ming kishi) viloyatda o'rtacha o'rinda turadi. Biroq hududiy maydon (330 km²) bo'yicha eng kichik tumanlardan biri. Aholi zichligi 39- kishi/km² bilan viloyatda eng yuqori ko'rsatkichlardan birini beradi. Omborlar soni bo'yicha esa (4 ta) viloyat o'rtachasidan sezilarli pastda.

IJTIMOIY INFRATUZILMA

Ta'lim:

Tumanda 50 ta umumiy ta'lim maktabi faoliyat ko'rsatib, ularda 20 mingdan ortiq o'quvchi tahsil oladi. Shuningdek, bolalar musiqa maktabi, litsey va kasb-hunar kollejlari mavjud. 2025-yilda tuman bo'yicha raqamli ta'lim infratuzilmasini kengaytirish doirasida 12 maktabga yangi kompyuter sinflari o'rnatilishi rejalashtirilmoqda.

Sog'liqni saqlash:

Tuman markaziy kasalxonasi, 2 ta poliklinika, 50 ga yaqin feldsher-akusherlik punkti, 7 ta vrachlik ambulatoriyasi va 7 ta dorixona mavjud. Tibbiy xodimlar: 115 vrach va 436 o'rta tibbiy xodim. 2025–2026-yillar uchun reja: 3 ta qishloq FAP(qishloq joylarda aholiga birinchi tibbiy-sanitariya yordami)ni rekonstruksiya qilish, tele-tibbiyot xizmatini joriy etish.

Madaniyat va sport:

Tuman markaziy kutubxonasi, madaniyat uyi, 7 ta klub muassasasi, 8 ta ashula va raqs xalq dastasi — jumladan "Qo'ng'irot" folklor-etnografik va estrada vokal-cholg'u dastalari faoliyat ko'rsatadi. Stadion, sport maydonchalari va sport zallari mavjud.

MAVJUD MUAMMOLAR

Tuproq sho'rlanishi:

Qiziriq tumani viloyatdagi eng quruq va eng issiq hududlardan biri. Yillik yog'in 150 mm, bug'lanish esa bundan 10–12 barobar yuqori. Bu tuzlarning yer yuziga ko'tarilishiga olib keladi. Qo'shimcha omillar:

- Bo'z tuproqlarning tabiiy sho'rlanishga moyilligi;
- Ko'p yillik sug'orish natijasida tuz yig'ilishi;
- Drenaj tizimining ba'zi qishloqlarda yetarli ishlamasligi (ayniqsa Oqjar, Kirshak, Qumqishloq qishloqlarida);
- Ekin maydonlarining kamayishi (2016→2024: −20,6%) qisman sho'rlangan yerlarning qishloq xo'jaligidan chiqib ketishi bilan bog'liq.

Suv resurslari muammosi:

Qiziriq tumani suv resurslari asosan "Surxondaryo suv ta'minoti" AJ tomonidan boshqariladi. Dolzarb muammolar:

- Sifatli ichimlik suvini tuman chetidagi qishloqlarga yetkazib berish;
- Suv ta'minoti tizimidagi eskirgan quvurlar va nosozliklar;
- Sug'orish suvidan tejamkor foydalanish madaniyatini oshirish.

2025–2026-yillarda "Toza ichimlik suvi" dasturi doirasida 3 qishloqda yangi suv ta'minoti loyihalari amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Iqtisodiy diversifikatsiya yetishmasligi:

Iqtisodiyotning qishloq xo'jaligiga yuqori darajada qaramligi iqlim yoki bozor risklarini kuchaytiradi. Yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi qayta ishlash korxonalari, eksport yo'nalishidagi sanoat tarmoqlari va raqamli xizmatlar yetarlicha rivojlanmagan. Agrologistika infratuzilmasi (4 ta ombor) talabga javob bermaydi.

AMALIY TAKLIFLAR (2025–2026)

Agrosanoat klasterini rivojlantirish

1. Meva-sabzavot konservasi va quritilgan mahsulotlar zavodini barpo etish (quvvati: yiliga 5 000 tonna mahsulot);
2. Zamonaviy sovutgichli omborlar soni 4 tadan 12–15 taga yetkazish (2025–2027-yillar uchun bosqichli reja);
3. Erta pishar mahsulotlarni xorijga eksport qiluvchi yuk saralash va qadoqlash markazini tashkil etish.

Transport va logistika

1. Toshkent–Dushanbe magistrali bo'ylab kichik yo'ldosh terminal va tranzit savdo markazi qurish;
2. Fermer-logistika platformasini raqamlashtirish (onlayn buyurtma, GPS-monitoring);
3. Ichki yo'llarni ta'mirlash va qishloqlararo ulanishni yaxshilash.

Melioratsiya va suv samaradorligi

1. Sho'rlangan yerlarni qayta ishlash va drenaj tizimlarini modernizatsiya qilish;
2. Tomchilatib sug'orish texnologiyasini fermer xo'jaliklariga keng joriy etish;
3. "Toza suv" dasturini tezlashtirish va suv tejamkorlik standartlarini qabul qilish.
4. *Tuman miqyosida 4G/5G qamrovini kengaytirish va tijorat xizmatlarini rivojlantirish.*

XULOSA

Ushbu tadqiqot Qiziriq tumani iqtisodiy-geografik tasnifini 2010–2024-yillar statistika ma'lumotlari va viloyat ko'rsatkichlari asosida har tomonlama ochib berdi. Asosiy xulosalar quyidagicha:

Tuman YHM 2010–2024-yillarda 17 barobar oshdi (3,3→56,5 mlrd. so'm), 2025-yil uchun prognoz — 62,8 mlrd. so'm.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotda yetakchi o'rinda bo'lib, chorvachilik o'sish sur'ati dehqonchiliknikidan oshib ketdi. Transport logistikasi yaxshilandi — 2024-yilda yuk tashish rekord darajaga yetdi (3 416,2 ming tonna). Ekin maydonlari kamayishi (−20,6%) sho'rlanish va intensiv dehqonchilikka o'tish bilan bog'liq.

Aholi zichligi (39 km²) bo'lishiga qaramay, agrologistika infratuzilmasi yetarli emas. Kelgusida agrosanoat klasterini rivojlantirish, meliorativ holatni yaxshilash, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyotni joriy etish orqali Qiziriq tumani Surxondaryo viloyatining iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlaridan biriga aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. https://surxonstat.uz/uz/rasmiy-statistika/macro-indicators-2 (murojaat vaqti 20.04.2026)